

ASAPEKTUAL SEMANTIKANI SHAKLLANTIRUVCHI TEMPORAL
BIRLIKLAR TASNIFI

N.P.Imamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti v.b dotsenti

Mavlonkulov Javoxir

MS-125 guruh talabasi

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI: <i>Received: 19.12.2025</i> <i>Revised: 20.12.2025</i> <i>Accepted: 21.12.2025</i>	<i>Ushbu maqolada davomiylik kategoriyasini ingliz va o'zbek tillarida aspektual nuqtai nazardan qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Davomiylik obyektiv voqelikdagi harakatning uzoq yoki qisqa muddatliligini qamrab oladi. Ingliz tilida perfektiv va oddiy shakllar, o'zbek tilida esa o'tgan zamon uchun ikki xil ko'rsatkich (-gan edi, -di) muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil ikki tilda ham harakat davomiyligini ifodalashda umumiy va o'ziga xos xususiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.</i>
KALIT SO'ZLAR: <i>davomiylik, aspekt, temporallik, perfektiv, imperfektiv, adverbiallar, fe'l shakli, qiyosiy tahlil</i>	

Davomiylikning semantik kategoriyasi ushbu semantikaning nisbatan uzoq muddatliligi qisqa muddatli davomiylik, oniylik va shu kabilarni qamrab oladi. Shuning uchun ham davomiylik vaqt kechimi tushunchasining obyektiv ko'rinishi sanaladi. Ikkalasi ham "davomiylikka munosabat (vaqt uzunligi)" tushunchasi bilan qamrab olingan.

Ushbu tushunchada davomiylik kategoriyasi obyektiv voqelik munosabatlariga mos keladi, bunda har bir real harakat u yoki holat qisqa yoki uzoq davomiylik bilan tavsiflanadi.

Ingliz va o'zbek tillarini taqqoslaganda, aspektual farqlar bilan solishtirganda, zamon va mayl farqlari kamroq darajada farqlanadi. Ingliz tilida perfektiv va oddiy shakllar muhim o'rin tutadi, shuningdek hozirgi vaqt ko'rsatkichiga ega bo'ladi. O'zbek tilida esa o'tgan zamonni ifodalash uchun ikki xil ko'rsatkich qo'llaniladi, ya'ni uzoq o'tmish –gan ekan, -gan edi va yaqin o'tmish (–di).

Ingliz tilida yaqin yoki o'tmish nuqtai nazardan emas, balki harakatning, voqea-hodisalarning bir-biridan oldin, keyin sodir etilganligi muhimroq sanaladi. O'tgan zamonni ko'rsatish uchun tilda fe'ning perfektiv shakliga murojat qilinadi.

Ingliz va o'zbek tillarida o'tgan zamon progressiv davomiy shaklini qo'llashda ham ma'lum semantik farqlar kuzatiladi. Aspektual semantikani farqlanishi fe'ning leksik

ma'nosidan tashqari adverbiallarga ham bog'liq. Bunda fe'l ifodalagan davomiylik grammatik shakldan tashqari temporal adverbiallar faollashuvi natijasi hisoblanadi.

Masalan: Trenck was still often seen fighting duels, escaping from prison, seducing women, lying and bragging, trying to set fire to his brother-in-law's villa [Saul Bellow "Humboldt's Gift", p. 88]; I'm just enjoying myself too much to argue about how mourning was never meant to extend for fifteen years and how I'm certain that anyone who truly cared for you would not want you never to enjoy your life again" [Susan Law, p. 13].

Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, aspektning bu muhimligi hind-yevropa tillariga ona tilining o'zidan meros bo'lib qolgan. Misol uchun, F. Landman o'rtasidagi aspektual farqni proto-hind-yevropa fe'llari orasidagi asosiy farq deb hisoblaydi. Uning fikricha, bu farq affikslar yoki fe'l ildizining xarakterli shakllari orqali ko'rsatilgan. Vaqtinchalik (temporallik) va davomiy jihatlar o'rtasidagi yana bir qarama-qarshilik mavjud. Temporallik farqlari esa ingliz tilida affikslar yordamida ko'rsatilmagan. Buning o'rniga, harakat vaqtini bildirish uchun ma'lum shakllar yoki qo'shimcha lisoniy vositalar ishlatiladi. Bundan tashqari harakat vaqtini ko'rsatuvchi birliklar aspekt ma'nosini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rib chiqilganidek, aspekt ingliz va o'zbek tillarida fe'l shakllaridan tashqari adverbial ravishlar faollashishi bilan bog'liqligini ko'rsadiki. Bundan tashqari aspektual ma'no kontekstdan kelib chiqmagan taqdiridagina o'ziga xos belgilar orqali zamon va aspekt farqlarini bildiradi. Kontekstdan tashqari, imperfektivlik o'tmish, odatiy hodisa sifatida hozirgi noaniq va progressiv shakl bilan bog'liq holda talqin qilinadi, ammo ular tegishli vaqt ko'rsatkichlari yordamida har qanday zamonga tayinlanishi mumkin. Biroq, aniq zamon yoki aspekt talqinlarini yaratish uchun bir qator yordamchi lisoniy vositalarning qo'llanilishi muhim sanaladi.

Masalan: But Griff liked the wide-open spaces, where the mountains flattened into a broad valley, and the cows and the horses and the fact that a man could work alone with them most of time. And all that silver could run a lot of cattle for a long time, couldn't it? [Susan Law, p. 11].

Ushbu misolda most of time so'z birikmasing odatiy shaklda qo'llanishi fe'lning flattened, could work alone shakli bilan ishlatilganda habituallikka qaratilgan. Boshqa tomondan progressive va odatiy zamon shakllari bilan mos ravishda o'tmishdagi progressiv va o'tmishdagi odatiy shakllar ham shu ma'noni beradi.

Aspektning keng tarqalgan oppozitsiyasi perfektiv va imperfektiv farq zamonaviy ingliz tilida juda keng tarqalgan. U fe'llarning chegaralangan va chegaralanmagan xususiyatlarida yuzaga kelishi bilan bir qatorda qo'shimcha, fe'l birikmalari, temporal adverbial ravishlar kabi boshqa bir qancha konstruksiyalarda, shuningdek nominativ birliklarning kvantativ qo'llanishida ham uchraydi. Zamon va aspekt farqlari konstruksiyalarda alohida talqin etiladi.

O'zbek tilidagi -yurmoq, -yotmoq ko'makchi fe'llari, davom etmoq birikmasi davomiyligni anglatadi. Ularga modifikatsiyalanadigan temporal ravishlar uning muddatini belgilashga xizmat qiladi. Masalan: Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k bargchalari ostida, hali ham allaqanday belgisiz bir tashvish va hadiksirash bilan sizlab yotgan ko'ksini yumshoq shabadaga berib, kashtasini tikarkan, uning g'amli ovozi g'amli kuylarni shabadaga qo'shib, olislarga uzatardi [A.Cho'lpon "Kecha va kunduz", b. 83]; Ummatali u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib to'lg'anib yotardi. O'g'li yo'lga kiribdiki, har kuni hunar ko'rsatadi. Boshqalarning bolalariga o'xshash bo'sh-bayovgina bo'lmadi [Said Ahmad "Ufq", b. 26].

Ushbu misolda u yonboshidan bu yonboshiga ravishlar harakatning cho'zilgan davomiyligi ravishlar toifasiga kiradi, lekin harakat davomiyligi ma'nosini boshqa ma'nolar bilan birlashtiradi. Masalan harakatni uzoq davomiyligi ma'nosi bilan yotgan predikati, nutq paytidagi davomiyligi yotardi predikati bildiradi. O'zbek tilida ushbu turkumdagi ko'makchi fe'llar va ravishlar polisemantik bo'lib, bunda kontekst hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Masalan: "ancha" va "uzoq" ma'noni anglatadi. "ancha yurmoq", "uzoq yurmoq" yoki "uzoq kutmoq", "ancha kutmoq", anchadan beri va hakoza. Masalan: Tog'a uning kechadan beri uxlamaganini, o'sha mudhish xabarni eshitgandan beri shu ahvolda telba bo'lib yurganini sezdi-da, boshqa biron narsaga alahsitmoqchi bo'ldi [Said Ahmad "Ufq", b. 297].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, morfologik, semantik, funksional jihatlarida ingliz va o'zbek tillarida harakat muddati uzaytirilgan qo'shimchalar umumiy va o'ziga xos jihatlarni ko'rsatadi. Ish harakatning uzoq muddatli davomiyligini anglatuvchi ravishlar ishlaganda, ikkala tilda ham harakatni prosisual aspektual semantikasini namoyon qiladi. Shunday bo'lsada har bir tildagi uzoq muddatli harakatni ifodalanishi nutqdan foydalanishda o'ziga xosdir. Har ikki tildagi harakat davomiyligi uzoq muddatini aspektual ma'nosini ifodalashda temporal ravishlar birdek ishtirok etishi kuzatiladi. Xususan, ingliz tilida for long time, too long, so long kabi temporal birikmalar yordamida amalga oshirilsa, o'zbek tilida ancha vaqt, ancha davr, uzoq vaqt va hokazolar bilan ifodalanadi. Davomiyligining aspektual ma'nosi leksik-semantik jihatdan fe'lning leksik ma'nosi emas, balki temporal ravishlar qo'llanishiga bog'liq. Ikkala tilda ham davomiyligi aspektual semantikasi temporal ravishlardan tashqari boshqa kontekstual vositalarga ham bog'liqligi kuzatiladi.

Davomiyligi aspektual semantikasi temporal ravishlar ishtirokidan tashqari bevosita fe'lning aksional xususiyatiga ham aloqador sanaladi. Maxsus uzluksiz fe'llar guruhi davomiyligi aspektual ma'nosini aniq ifodalaydi. Shunga ko'ra, vaqt davomiyligi, kechimi ikkala tilda ham chegaralanmagan xususiyatli fe'llar temporal ravishlar bilan birlashganda, davomiyligi ma'nosini kuchaytiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan: At one interval, while Cantabile was fussing over a tray of diamonds (nasty, that white stuff seemed to me), the old gentleman spoke to me. He said, "I know you from somewhere, don't I?" "Yes," I said.

“From the whirlpool at the Downtown Health Club, I think” [Saul Bellow “Humboldt’s Gift”, p. 50]; Oraga jimlik cho’kdi. Faqat Miryoqubning chuqur o’yga ketib, torta-torta choy ichgani eshitilardi. Mingboshi qo’lidagi choyni hech bir luzumsiz aylantirib, sovutmoq bilan o’vora edi [A.Cho’lpon “Kecha va kunduz”, b. 88].

Ingliz tilida ham davomiylik zamonga aloqador bo’lgan kategorial ko’rsatkichlarda nutq vaqtiga aloqador bo’lgan davomiylikni ifodalaydi. Ingliz tilida be+ing qo’shimchasi polisemantik va sinkretik bo’lganligi sababli, u davomiylik ma’nosini faqat chegaralanmagan xususiyatni fe’llar bilan qo’shilganda namoyon qiladi. Masalan: O’zbek tilida esa –sa, –yot, zamon qo’shimchalar nutq vaqtiga bog’liq bo’lgan davomiylikni anglatadi. Mazkur shakl ham asosan chegaralanmagan xususiyatni fe’llarga qo’shilganda sof aspektual davomiylik kuzatiladi. Masalan: U yelkasidagi qo’shtig’ni qo’liga olib olislarga bo’y cho’zib qarab qo’yadi. Orqada ko’pdan beri sukut ichida allanimalami o’ylab, maxorka tutatib kelayotgan Ikromjonga har zamonda bir o’girilib qaraydi, uning xayolini bo’lmaslik uchun yana otga beozor qamchi tegizib jimgina ketaveradi [Said Ahmad “Ufq”, b. 271].

O’zbek tilida uzoq vaqt harakat muddati ma’lum ko’makchi fe’llar bilan ham ifodalanadi. Aksariyat hollarda ular cheksiz jarayonlar va holatlarni anglatadi. Masalan: Nizomjonning ko’pdan beri endi iliq so’z eshitishi edi. Qayga borsa, oyog’ining tagidan biron falokat chiqib turadi [Said Ahmad “Ufq”, b. 278].

Semantik uzluksiz fe’llar davomiylikning aspektual ma’nosini bilvosita bildiradi; shunga ko’ra, ular temporal birliklar bilan birlashganda, ikkala tilda ham davomiylik aspektual ma’nosining aktualizatori bo’lib ishlaydi. Harakatning davomiyligini bildiruvchi ravishlar morfologik ko’rsatkichlar yordamida fe’lning aspektual ma’nosi ifodalangan kontekst bilan birlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бондарко А.В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспектологии (2-изд.). – Москва.: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 100.
2. Landman F, Plurality. Handbook of Contemporary Semantics. Oxford: Blackwell, 1995. – P. 218-225.
3. Wechsler Stephen. Resultatives under the “event-argument homomorphism” model of telicity. In The syntax of aspect: deriving thematic and aspectual interpretation, Nomi Erteschik-Shir and Tova Rapoport Oxford: Oxford University Press. 2005. – P. 73.
4. Wechsler Stephen. Resultatives under the “event-argument homomorphism” model of telicity. In The syntax of aspect: deriving thematic and aspectual interpretation, Nomi Erteschik-Shir and Tova Rapoport Oxford: Oxford University Press. 2005. – P. 73.